

## **Yangi O'zbekiston ostonasi mактабдан бoshланади**

Joriy yilning 30- sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida "Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish" masalalari muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filiali Dehqonobod tumani 28-, 33-, 38-, 40-, 47-, 48-, 49-, 52 va Yakkabog' tumanidagi 86 - maktablariga mas'ul etib belgilandi. Maktablarning pedagogik salohiyatini oshirishga, o'qitishning yangi metodikalarini joriy etishga, o'qituvchilarning aniq fanlar bo'yicha malakasini oshirishga qaratilgan "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Filialga biriktirilgan maktablarga amaliy yordam berish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish bo'yicha ishchi guruhlar shakllantirildi. 2020- yilning 5 -noyabr kuni Dehqonobod tumani 52 - maktabga Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i B.Ro'zqulov rahbarligidagi ishchi guruh tashrifi amalga oshirdi. Maktab o'qituvchilarini matematika va kimyo fanidan malakasini oshirish, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasi bo'yicha doimiy hamkorlik rejasi ishlab chiqildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**